

**Gulyamov Alisher Azizovich**  
Osiyo xalqaro universiteti  
tarix va filologiya kafedrasi  
tarix fani o'qituvchisi  
[aligulyamov1997@gmail.com](mailto:aligulyamov1997@gmail.com)

## 1946-1990-YILLARDA PAXTACHILIK VA DONCHILIK TARMOQLARINING RIVOJLANISHI

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada 1946–1990 yillar oralig'ida O'zbekiston SSR hududida paxtachilik va donchilik tarmoqlarining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish jarayonlari o'rganiladi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi tiklanish yillari, sobiq Sovet Ittifoqi agrar siyosatining bevosita ta'siri ostida bu tarmoqlarning davlat tomonidan markazlashtirilgan rejalashtirish asosida qanday shakllanganligi yoritiladi.

**Kalit so'zlar:** Paxtachilik, donchilik, qishloq xo'jaligi, Sovet agrar siyosati, kolhoz, sovxoz, majburiy mehnat, paxta kompaniyasi, davlat rejalashtirish, agrar islohotlar, suv bilan ta'minlash, irrigatsiya tizimi, mahsulot topshirish rejasi.

### РАЗВИТИЕ ХЛОПКОВОДСТВА И ЗЕРНОВОДСТВА В 1946–1990 ГОДАХ

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются процессы экономического и социального развития отраслей хлопководства и зерноводства на территории Узбекской ССР в период с 1946 по 1990 годы. Особое внимание уделяется восстановительным годам после Второй мировой войны, а также тому, как аграрная политика бывшего Советского Союза непосредственно повлияла на формирование этих отраслей в условиях централизованного государственного планирования.

**Ключевые слова:** хлопководство, зерноводство, сельское хозяйство, аграрная политика СССР, колхоз, совхоз, принудительный труд, хлопковая кампания, государственное планирование, аграрные реформы, водоснабжение, ирригационная система, план сдачи продукции.

### DEVELOPMENT OF COTTON AND GRAIN SECTORS IN 1946–1990

**Annotation.** This article explores the economic and social development of the cotton and grain sectors in the Uzbek SSR between 1946 and 1990. It examines the post-World War II recovery years and analyzes how the agricultural policy of the former Soviet Union directly influenced the formation and functioning of these sectors under centralized state planning. The study focuses on the structural transformation of agriculture, state intervention, and the mechanisms of management and production in cotton and grain farming during the Soviet era.

**Keywords:** Cotton cultivation, grain production, agriculture, Soviet agrarian policy, kolkhoz, sovkhoz, forced labor, cotton campaign, state planning, agrarian reforms, water supply, irrigation system, production quota system.

**Kirish.** XX asrning ikkinchi yarmida O'zbekiston agrar sektorida amalga oshirilgan siyosiy-iqtisodiy islohotlar uning tarkibiy tarmoqlari – paxtachilik va donchilikni tubdan o'zgartirdi. 1946–1990-yillar davrida bu tarmoqlar nafaqat respublika iqtisodiyotining asosiy ustuniga aylandi, balki ittifoq miqyosida strategik ahamiyatga ega bo'lgan sohalardan biriga aylandi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Каримов, Ж. "Сирдарё водийсида аграр ислохотлар." Иқтисодий таҳлил, №3, 1999, Сафаров М. Тошкент вилояти кишлок хўжалигининг шаклланиши. – Т.: «Иқтисодиёт», 1990 – kabi adabiyotlar asosida Toshkent va

Sirdaryo viloyatlarida 1946-1990-yillarda paxtachilik va donchilik tarmoqlarining rivojlanishi yoritib berilgan.

**Muhokama.** O'zbekiston qishloq xo'jaligida paxtachilik va donchilik tarmoqlari mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rin tutadi. 1946–1990-yillar davrida bu tarmoqlar Toshkent va Sirdaryo viloyatlarida jadal rivojlandi. Bu davrdagi agrar siyosat, iqtisodiy islohotlar va texnologik o'zgarishlar ushbu sohalarining rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Mazkur dissertatsiya ushbu jarayonlarni tarixiy-tahliliy nuqtai nazardan o'rganishga qaratilgan. Ikkinchi jahon urushi qishloq xo'jaligiga katta ta'sir ko'rsatdi. Urushdan keyingi yillarda paxtachilik va donchilik tarmoqlari qayta tiklandi. 1950-yilga kelib, paxta hosildorligi gektaridan 21,1 sentnerga yetdi. Bu davrda paxta terish mashinalari ishlab chiqarilishi va g'o'za bargini to'kishda kimyoviy moddalar qo'llanilishi paxtachilikdagi mexanizatsiyalashtirish jarayonini jadallashtirdi.

1946–1960-yillar davri O'zbekiston qishloq xo'jaligi, xususan, paxtachilik va donchilik sohalarida tub o'zgarishlar yuz bergan, qayta tiklanish va industrializatsiya davri hisoblanadi. Urushdan keyingi yillarda asosiy e'tibor qishloq xo'jaligini qayta tiklash, unumdorlikni oshirish hamda yangi yerlarni o'zlashtirishga qaratildi. Ayniqsa, Toshkent va Sirdaryo hududlarida paxtachilik tarmog'iga katta kuch va mablag' yo'naltirildi. 1950-yillarda Toshkent viloyatida yangi suv quduqlari qazildi, obihayot tarmoqlari kengaytirildi va sug'orish maydonlari yaxshilandi [1]. Shu bilan birga, paxta hosildorligi 1946-yildagi har gektariga o'rtacha 12–13 sentnerdan, 1960-yilga kelib 22–24 sentnergacha oshdi. Sirdaryo vodiysida 1950-yillar oxirida yangi sovxoz va kolxozlar tashkil etildi. Bu yerlarda To'rtko'l kanali va Yangiyer meliorativ loyihalari amalga oshirildi. Yangi o'zlashtirilgan yerlar orqali donchilikni ham rivojlantirish mumkin bo'ldi. Xususan, bu hududda bug'doy va arpa yetishtirish keng ko'lamda tashkil etildi.

*1954–1956-yillarda mamlakat bo'ylab amalga oshirilgan "Selina" (noishlov yerlarni o'zlashtirish) siyosati doirasida Sirdaryo vodiysida ham yangi paxta va don yetishtiruvchi maydonlar tashkil etildi. Bu davrda Toshkent viloyatida donchilik uchun ajratilgan yerlar soni 18% ga oshdi [2]. Shu bilan birga, mexanizatsiya darajasi ham o'sib bordi. Traktorlar, paxta terish mashinalari va g'alla kombaynlari qishloq xo'jaligi ishini ancha yengillashtirdi. Bu davrda donchilik tarmog'i ham rivojlandi. Yangi navlar joriy etildi, sug'orish tizimlari yaxshilandi va mexanizatsiyalashtirish ishlari amalga oshirildi. Shuningdek, mazkur yillarda ilmiy-tadqiqot muassasalari faoliyati kengayib, agrotexnik tadbirlar va navlar seleksiyasiga katta e'tibor qaratildi. Misol uchun, Toshkent qishloq xo'jaligi institutida yetishtirilgan yangi paxta navlari hosildorlikni oshirishda muhim omil bo'ldi.*

*Siyosiy-iqtisodiy sharoit va qishloq xo'jaligidagi islohotlar 1946-yildan boshlab SSSR hukumati mamlakat qishloq xo'jaligini tiklash va rivojlantirishga katta e'tibor qaratdi. Bunda paxtachilik va donchilik tarmoqlari asosiy strategik yo'nalish sifatida belgilandi. Bu davrda kolxoz va sovxozlar tizimi mustahkamlandi, mexanizatsiya, irrigatsiya va agronomiya sohalarida sezilarli o'zgarishlar amalga oshirildi [3].*

*Paxta yetishtirishning davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi Paxta SSSR sanoati uchun strategik xom ashyo hisoblanardi. 1950–1980-yillar davrida Toshkent va Sirdaryo viloyatlari paxta yetishtirish bo'yicha respublikada yetakchi o'rinlarni egalladi. Yangi sug'orish tizimlari qurildi, paxtazorlar maydoni kengaytirildi va yangi navlar joriy etildi [4]. Ijtimoiy ta'sirlar Paxtachilikka jalb etilgan mehnat resurslari orasida ayollar va yoshlar asosiy o'rinni egalladi. Bunda davlat targ'iboti va majburiy mehnat elementlari ham mavjud edi.*

*Don yetishtirishga e'tiborning kuchayishi 1950-yillardan boshlab mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida donchilikka alohida e'tibor qaratildi. Toshkent viloyatida Chinoz, Oqqo'rg'on, Sirdaryo viloyatida esa Sayxunobod, Boyovut tumanlari don yetishtirishda mustahkam o'rin egalladi [5].*

*Yangilangan agrotexnologiyalar va melioratsiya ishlari donchilik sohasida ham melioratsiya ishlari va mineral o'g'itlardan foydalanish keng yoyildi. Navbatdorlik va agrotexnik tadbirlar natijasida hosildorlik orta boshladi. Yangi navlardan foydalanish, uskunalar va texnologiyalarning joriy qilinishi donchilikni modernizatsiyalashga turtki bo'ldi. Donchilik va aholi ta'minoti bu davrda yetishtirilgan don mahsulotlari nafaqat mahalliy iste'mol, balki*

34 umumsoyuz ehtiyojlarini ham qondirishga yo'naltirilgan edi. Shu boisdan, donchilikka hukumat tomonidan subsidiyalar va imtiyozlar ajratildi. Iqlim va geografik sharoitning ta'siri Har ikkala viloyatda ham sug'orish imkoniyatlarining kengligi va iqlim sharoiti paxta va don yetishtirish uchun qulay maydonlarni yaratdi. Ilmiy-tadqiqot muassasalari va kadrlar tayyorlash Paxtachilik va donchilik sohalarida ilmiy tadqiqot institutlari tashkil qilindi. O'zbekiston Qishloq xo'jaligi institutining Toshkent filiali, navsozlik va agrotexnika laboratoriyalari katta ahamiyat kasb etdi [6]. Hududiy ixtisoslashuv Toshkent viloyatida donchilik va bog'dorchilik, Sirdaryo viloyatida esa asosan paxtachilikka ixtisoslashish kuzatildi. Bu ixtisoslashuv mintaqaviy iqtisodiy samaradorlikka olib keldi.

1946–1990-yillar davrida Toshkent va Sirdaryo viloyatlarida paxtachilik va donchilik sohalarida amalga oshirilgan islohotlar va rivojlanish jarayonlari O'zbekiston qishloq xo'jaligining umumiy salohiyatini oshirishda muhim o'rin tutdi. Ushbu davrdagi tajribalar bugungi kunda ham ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir.

1946–1960-yillarda mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy sharoitga qaramay, qishloq xo'jaligi sohasi, xususan, paxta va don yetishtirishga alohida e'tibor qaratildi. Urushdan keyingi iqtisodiy islohotlar natijasida Toshkent va Sirdaryo viloyatlarida yerlashtirish siyosati qayta ko'rib chiqildi, yangi suv chiqarish inshootlari qurildi va melioratsiya ishlari amalga oshirildi. Bu davrda paxta yetishtirish bo'yicha maxsus sovxoz va kolxozlar tashkil qilindi. Masalan, Sirdaryodagi "Paxtachi" va "Yangi hayot" kolxozlari yuqori hosildorlikka erishgan xo'jaliklar qatoriga kiritilgan edi [7]. Donchilik sohasida esa ko'proq bug'doy, arpa va qav yetishtirish ustuvor bo'ldi.

Ushbu davrda agrotexnik tadbirlarning keng joriy etilishi va mexanizatsiya darajasining oshib borishi natijasida paxta va don xosildorligi orta boshladi. Toshkent viloyatidagi Qibray, Chinoz tumanlarida zamonaviy texnikamashinalar bilan jihozlangan sovxozlar faoliyat ko'rsatdi. Shuningdek, urug'lik sifati va navlarni saralash ishlariga jiddiy e'tibor qaratildi [8]. Paxtachilik sohasida hosildorlik har gektariga 25–30 sentnerga yetdi. Donchilikda esa navlarni yaxshilash va intensiv agrotexnologiyalarni joriy etish natijasida bug'doy xosildorligi sezilarli darajada oshib bordi. Ayniqsa, "Mirzacho'l" mintaqasini o'zlashtirish loyihasi doirasida Sirdaryo viloyatidagi keng maydonlar sug'oriladigan yerlarga aylantirildi.

1980-yillar oxiridagi siyosiy o'zgarishlar va iqtisodiy qiyinchiliklar fondasida qishloq xo'jaligi sohasida tizimli islohotlar o'tkazila boshlandi. Ayniqsa, kolxoz va sovxozlarning erkin xo'jalik yuritishga o'tishi paxta va don yetishtirishda ayrim muammolarni keltirib chiqardi. Shu bilan birga, xo'jaliklarda ishchi kuchi bilan ta'minlash, agrotexnikaga rioya qilishdagi kamchiliklar, moddiy-texnika ta'minotidagi uzilishlar soha rivojini sekinlashtirdi. Biroq, joylardagi tashabbuskor rahbarlar va mutaxassislar harakati bilan asosiy ko'rsatkichlar ma'lum darajada ushlab turildi [9].

1946–1990-yillar davomida Toshkent va Sirdaryo viloyatlarida paxtachilik va donchilik tarmoqlari bosqichma-bosqich rivojlandi. Davrning har bir bosqichi o'ziga xos iqtisodiy, texnik va ijtimoiy sharoitlarga ega bo'lib, mazkur tarmoqlarning taraqqiyotida muhim omil bo'lib xizmat qildi.

Urushdan keyingi yillar (1946–1950-y.y.) Toshkent va Sirdaryo viloyatlarida dehqonchilik sohasining holati juda murakkab va ziddiyatli bo'lgan. Bir tomondan, iqtisodiy tiklanishga qaratilgan davlat siyosati asosida dehqon xo'jaliklari uchun zarur texnika, urug'lik va moliyaviy ko'mak ko'rsatish choralari ko'rilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, kolxoz-sovxoz tizimini mustahkamlash maqsadida amalga oshirilgan ma'muriy-idorachilik usullari dehqonchilikni rivojlantirishga jiddiy to'siqlar keltirib chiqardi.

Mazkur davrda yerdan samarali foydalanish, melioratsiya ishlarini yo'lga qo'yish va yangi sug'oriladigan maydonlarni o'zlashtirish bo'yicha qator ishlar amalga oshirildi. Biroq mehnat unumdorligining pastligi, moddiy-texnika ta'minotidagi yetishmovchiliklar, mehnat unvoni berilmagan kishilarning katta ulushi va maosh tizimining samarasizligi dehqonchilikning real imkoniyatlarini cheklab qo'ydi.

*Natija. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ushbu ikki hududda dehqonchilikni tiklashda aholi mehnatsevarligi, mahalliy sharoitga moslashgan agrotexnika yutuqlari va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish muhim omillar bo'lgan. Shuningdek, qishloq xo'jaligi sohasida amalga oshirilgan islohotlar dehqonchilikni rivojlantirishga ma'lum darajada ijobiy ta'sir ko'rsatgan bo'lsa-da, ko'p jihatdan markaziy hukumatning qattiq nazorati va byurokratik boshqaruv tizimi uning salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga to'sqinlik qilgan.*

*Donchilik tarmog'i esa asosan ichki oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash maqsadida rivojlanib, u ham davlat rejalari asosida qat'iy nazorat ostida olib borildi. Bu ikki tarmoqdagi o'sish bilan birga, ularning ijtimoiy va ekologik oqibatlar ham yuzaga chiqdi, xususan, majburiy mehnat va Orolbo'yi fojiasi kabi salbiy holatlar kuzatildi.*

*Shunday qilib, bu davrdagi paxtachilik va donchilikning rivojlanish jarayonlari O'zbekistonning iqtisodiy tarixida muhim o'rin tutib, sovet davridagi agrar siyosatning mahalliy tarmoqlarga ko'rsatgan ta'sirini yaqqol ifodalaydi. Maqolada keltirilgan tahlillar ushbu tarmoqlarning tarixiy tajribasini o'rganish va hozirgi agrar islohotlar uchun saboq sifatida muhim ahamiyatga ega.*

*Xulosa. Urushdan keyingi yillarda Toshkent va Sirdaryo viloyatlarida dehqonchilik sohasida kuzatilgan holatni baholar ekanmiz, uni davrning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy murakkab sharoiti bilan bog'lab tahlil qilish zarur. Bu esa keyingi ilmiy tadqiqotlar uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi. 1946–1990-yillar mobaynida O'zbekiston SSRda paxtachilik va donchilik tarmoqlari sobiq Sovet Ittifoqining agrar siyosatining markazida bo'lgan muhim yo'nalishlar sifatida shakllandi va rivojlandi. Ushbu davrda paxta sanoati strategik mahsulot darajasiga ko'tarilib, davlat ehtiyojlarini qondirish va eksport salohiyatini ta'minlash maqsadida keng ko'lamda rivojlantirildi. Bunda markazlashgan rejalashtirish, kolxoz va sovxoz tizimlari, mehnat resurslaridan majburiy foydalanish, suv bilan ta'minlash tizimining kengaytirilishi va yangi yerlarning o'zlashtirilishi asosiy omillar bo'ldi.*

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ўзбекистон Республикаси Марказий архиви, Ф.76, рўйхат 4, иш 351, 112-бет.
2. Каримов, Ж. "Сирдарё водийсида аграр ислохотлар." Иқтисодий таҳлил, №3, 1999, 33-бет.
3. Қосимов Ш.Қ. Ўзбекистон қишлоқ хўжалигининг тарихий ривожланиши. – Т.: «Fan», 2005.
4. Аҳмедов А. Ҳ. Пахтачилик ва унинг иқтисодий аҳамияти. – Т.: «Маърифат», 1987
5. Сафаров М. Тошкент вилояти қишлоқ хўжалигининг шаклланиши. – Т.: «Иқтисодиёт», 1990.
6. Қодиров Б. Қишлоқ хўжалиги илмий тадқиқотлари тарихи. – Т.: «Fan», 1989.
7. "Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги тарихи" (II жилд). – Т.: Фан, 1983.
8. Қодиров А. Тошкент вилоятида қишлоқ хўжалиги ривож (1950–1980). – Тошкент: ЎзМУ нашриёти, 1990.
9. Мирзаев С. Аграр ислохотлар ва уларнинг оқибатлари. – Т.: Шарк, 1991.